Ключевые слова: военнослужащие, уволенные в запас; реинтеграция; психологическая адаптация; интеграционный феномен; военная идентичность; эмоциональная нестабильность; эмоциональная отстраненность; семейные конфликты; стереотипы; стигматизация; дезадаптация; социально-профессиональные роли; социальная идентификация.

KIRISH

Harbiy xizmatdan rezervga bo'shatilgan shaxslarning fuqarolik jamiyatiga qaytishi nafaqat individual xususiyatga ega bo'lgan iqtisodiy jarayon, balki davlatning ijtimoiy barqarorligi va jamoat xavfsizligi bilan uzviy bog'liq murakkab ijtimoiy-psixologik fenomendir.

"Reintegratsiya" atamasi hayotning turli sohalarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish bilan bog'liq bo'lgan qator masalalarni ifodalaydi ^[1]:

- psixologik salomatlik - xulq-atvor, ruhiy yoki emotsional simptomlar va buzilishlar yoxud psixosotsial faoliyat;
- ijtimoiy soha - oila a'zolari, do'stlar bilan o'zaro munosabatlar, ota-onalik yoki er-xotinlik munosabatlari hamda oilaviy muammolar;
- jismoniy salomatlik - kasalliklar, xastaliklar, jarohatlar yoki umumiy sog'lomlik;
- bandlik - harbiy xizmatdan keyingi ishsizlik yoki kasbiy faoliyat;
- uy-joy - uysizlik, boshpana yoki yashash sharoitlari;
- moliyaviy soha - shaxsiy iqtisodiy masalalar;
- ta'lim - oliy ta'lim yoki ta'lim muassasalarida o'qishni davom ettirish;
- huquqiy soha - g'ayriqonuniy xulq-atvor yoki jinoiy odil sudlov masalalari;



- ma'naviy soha - diniy yoki ma'naviy faoliyat, hayotiy mazmun va maqsadni anglash;
- umumiy soha - boshqa toifalarga to'g'ridan to'g'ri ishora qilmasdan, umumiy psixosotsial, sog'liq va jamiyat bilan bog'liq faoliyat.

Xulosa qilib aytganda, reintegratsiya - bu psixologik va jismoniy salomatlikni o'z ichiga olgan, umumiy psixosotsial faoliyatning keng qamrovli, yaxlit (xolistik) konsepsiyasidir. U ushbu tahlilga kiritilgan boshqa atamalarga qaraganda ko'proq sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarni qamrab oladi hamda ko'pincha jismoniy salomatlik va reabilitatsiya masalalariga urg'u beradi. Boshqa tushunchalardan farqli o'laroq, reintegratsiya ba'zan harbiy shaylikning (jangovar tayyorgarlikning) muhim tarkibiy qismi sifatida ham qaraladi va "ijobiy reintegratsiya tajribasi"ni, ya'ni harbiy xizmat va jangovar vazifalarni bajarish shaxs hayotini qanday boyitishi yoki hayotiy mazmun anglanishini qanday kuchaytirishini ifodalaydi.

Ta'kidlash zarurki, reintegratsiya jarayoni faqatgina psixologik defitsit (kamchiliklar) va to'siqlarni yengishdan iborat emas. Xalqaro nazariy yondashuvlar ko'rsatganidek, harbiy xizmatda ortirilgan ijobiy tajriba, qat'iy intizom, strategik fikrlash va vatanparvarlik g'oyalari (davlat mafkurasi) rezervdagi shaxslarning fuqarolik hayotida yanada yuqori motivatsiya va yangi ijtimoiy mazmun topishiga – ya'ni "pozitiv reintegratsiya"ga xizmat qiladi.

Harbiy xizmatning qat'iy tartibga asoslangan tizimi, undagi qadriyatlar va kasbiy rollar tizimidan so'ng fuqarolik muhitiga moslashish sobiq harbiy xizmatchilardan shaxslararo muloqot uslublarini qayta ko'rib chiqish, yangi ijtimoiy status va oilaviy rollarni o'zlashtirishni talab etadi. Mazkur jarayonda reintegratsiyaning muvaffaqiyatli kechishi shaxsning ichki ehtiyojlari, fuqarolik hayotidagi yangi kasbiy motivatsiyasi hamda uni o'rab turgan ijtimoiy muhitning qo'llab-quvvatlash darajasi o'rtasidagi muvozanatga bevosita bog'liqdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Dr. Madeline Romaniuk tomonidan olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, faxriylar harbiy xizmatdan bo'shatilgandan so'ng sezilarli va ko'p sonli yo'qotishlarni boshdan kechiradilar. Umuman olganda, faxriylarning transformatsiya (fuqarolikka o'tish) jarayoniga harbiy submadaniyat va hamjamiyatning yo'qolishi, shaxsiy identiklik (o'zlik)ning yo'qolishi hamda hayotiy maqsad (missiya)ning yo'qolishi jiddiy ta'sir ko'rsatadi ^[2].

Mazkur xulosalar harbiy xizmatdan fuqarolik hayotiga o'tayotgan faxriylarda ushbu yo'qotishlar bilan bog'liq psixologik kechinmalarni o'rganish va ularga tizimli yondashish muhimligini asoslab beradi.

Nina A.Sayer boshchiligidagi olimlarning fikricha, "Faxriylar (harbiy xizmatchilar)ning jamiyatga reintegratsiyalashuvi (qayta moslashuvi) jarayonidagi muammolarni aniqlash va ularning oldini olish jamiyat salomatligi va xavfsizligini ta'minlashning muhim shartlaridan biridir" ^[3].


Rezervga bo'shatilgan shaxslarning ijtimoiy-psixologik muammolarini barvaqt aniqlash va tizimli monitoring qilish - jamiyatda destruktiv holatlarning oldini olish, sobiq harbiylarning ijtimoiy salohiyatini fuqarolik xavfsizligi va mahallalar barqarorligi yo'lida qayta safarbar etishning eng samarali vositasidir.

Zamonaviy ijtimoiy psixologiyada mazkur transformatsiya davrini tizimli o'rganishda umumiy nazariy yondashuvlardan ko'ra, real ijtimoiy realikni aks ettiruvchi empirik ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyoj yuqoridir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Rezervga bo'shatilgan shaxslarning real ehtiyojlari, ular duch kelayotgan kommunikativ va rolli to'siqlar, shuningdek, yangi kasbiy faoliyatga moslashuv dinamikasi faqatgina maqsadli ijtimoiy-psixologik so'rovnomalalar va amaliy tahlillar orqali aniqlanishi kerak bo'lgan manzarani ko'rsatib bera oladi.

TAHLIL VA NATIJALAR



1-rasm: Fuqaroviy muhitda muloqot uslubingiz? nomli savolga berilgan javoblar




“Fuqaroviy muhitda muloqot uslubingiz?” nomli savolga berilgan javoblar tahlili rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning kommunikativ kompetensiyasi, ijtimoiy moslashuv darajasi hamda shaxslararo munosabatlar tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beruvchi muhim ijtimoiy-psixologik indikator hisoblanadi. Muloqot uslubi shaxsning fuqaroviy jamiyatga integratsiyalashuvi, ijtimoiy aloqalarni shakllantirish va qo'llab-quvvatlash, shuningdek, psixologik farovonlikni ta'minlashda muhim determinant sifatida namoyon bo'ladi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, respondentlarning 170 nafari (23,1%) “moslashuvchan, ochiq va samarali” muloqot uslubini namoyon etishini bildirgan. Ushbu natija mazkur guruh vakillarida yuqori darajadagi kommunikativ kompetensiya, emotsional intellekt va ijtimoiy moslashuvchanlik mavjudligini ko'rsatadi. Bu shaxslar turli ijtimoiy vaziyatlarga tez moslasha oladi, samarali muloqot strategiyalaridan foydalanadi va shaxslararo munosabatlarda konstruktiv pozitsiyani egallaydi.

Respondentlarning eng katta qismi 307 nafari (41,8%) “asosan samarali, lekin ayrim to'siqlar bor” deb javob bergan. Bu guruh vakillarida muloqot kompetensiyasi yetarli darajada shakllangan bo'lsa-da, ayrim vaziyatlarda kommunikativ qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Ushbu to'siqlar ko'pincha harbiy muhitda shakllangan ierarxik muloqot modeli, qat'iy intizomiy normalar yoki emotsional ifodaning cheklanganligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, ushbu guruhda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish orqali moslashuvni yanada yaxshilash imkoniyati yuqori.

Respondentlarning 151 nafari (20,5%) “muloqotda qiyinchiliklar mavjud” deb baholagan. Ushbu guruhda kommunikativ kompetensiya yetarli darajada rivojlanmagan bo'lib, bu shaxslar fuqaroviy muhitdagi erkin, teng huquqli va ochiq muloqot tizimiga moslashishda muammolarga duch kelishi mumkin. Ijtimoiy-psixologik jihatdan bu holat ijtimoiy tashvish, ishonchsizlik yoki kommunikativ rigidlik bilan bog'liq bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Respondentlarning 107 nafari (14,6%) “muloqotdan qochishga moyilman” deb javob bergan. Mazkur guruh eng yuqori risk toifasiga kiradi, chunki ularda ijtimoiy izolyatsiya, kommunikativ passivlik va psixologik dezadaptatsiya belgilari kuzatilishi mumkin. Bunday shaxslar jamiyat bilan faol aloqaga kirishishda qiyinchiliklarga duch keladi, bu esa reintegratsiya jarayonining samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, respondentlarning asosiy qismi fuqaroviy muhitda nisbatan samarali muloqot uslubini namoyon etadi. Shu bilan birga, qariyb uchdan bir qismida kommunikativ qiyinchiliklar yoki muloqotdan qochish tendensiyasi mavjud.

“Ruhiy salomatlik yoki kognitiv buzilishlarga ega bo'lgan va harbiy xizmatdan bo'shatilayotgan faxriylar ko'pincha fuqarolik hayotiga moslashish (o'tish) jarayonida jiddiy qiyinchiliklarga duch keladilar. Shunga qaramay, harbiy xizmatdan bo'shatilgan dastlabki davrlarda, “yashirin jarohatlar”ga ega bo'lgan faxriylar kontingenti uchun reintegratsiya jarayoni hamda asosiy psixosotsial va farovonlik ko'rsatkichlari (o'zaro munosabatlar) o'rtasidagi bog'liqlik tizimi hanuzgacha ko'plab ilmiy savollarni ochiq qoldirmoqda” [4].

Bizningcha, psixosotsial farovonlik muammosi zaxiradagi harbiy xizmatchilarning fuqarolik muhitdagi muloqot uslubida to'g'ridan to'g'ri aks etadi. Ruhiy yoki kognitiv sohadagi yuklamalar shaxsning destruktiv (buzuvchi) yoki himoyalalanuvchi muloqot uslublarini tanlashiga olib keladi, bu esa reintegratsiya davridagi dastlabki ijtimoiy ehtiyojlarni to'g'ri qondirishga to'sqinlik qiladi (2-rasm).




2-rasm: Atrofingizdagi ijtimoiy qo'llab-quvvatlash qay darajada namoyon bo'ladi? nomli savolga berilgan javoblar

“Atrofingizdagi ijtimoiy qo'llab-quvvatlash qay darajada namoyon bo'ladi?” nomli savolga berilgan javoblar tahlili rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning reintegratsiya jarayonida ijtimoiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi, emotsional tayanch tizimi hamda ijtimoiy moslashuvning muhim determinantlarini aniqlash imkonini beruvchi muhim ijtimoiy-psixologik indikator hisoblanadi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash shaxsning stressga chidamliligini oshiruvchi, psixologik farovonligini ta'minlovchi va ijtimoiy integratsiyani tezlashtiruvchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etiladi.



Jadval ma'lumotlariga ko'ra, respondentlarning 170 nafari (23,1%) "barqaror va ko'p manbali (oilalar, do'stlar, institutlar)" ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mavjudligini bildirgan. Ushbu natija mazkur guruh vakillarida keng ijtimoiy tarmoq va yuqori darajadagi ijtimoiy kapital mavjudligini ko'rsatadi. Bunday qo'llab-quvvatlash tizimi shaxsning moslashuv jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi, stress omillarining salbiy ta'sirini kamaytiradi hamda psixologik barqarorlikni mustahkamlaydi. Respondentlarning 151 nafari (20,5%) "cheklangan, lekin yetarli" deb javob bergan. Ushbu guruhda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash resurslari mavjud bo'lsa-da, ular ko'lab jihatidan torroq bo'lib, asosan yaqin ijtimoiy muhit bilan cheklangan. Shu bilan birga, mazkur darajadagi qo'llab-quvvatlash reintegratsiya jarayonining nisbatan barqaror kechishini ta'minlash uchun yetarli hisoblanadi.

Respondentlarning eng katta qismi 307 nafari (41,8%) "epizodik va zaif" ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mavjudligini ta'kidlagan. Bu holat tanlanmaning katta qismida ijtimoiy resurslar yetarli darajada shakllanmaganligini ko'rsatadi. Mazkur vaziyat shaxsning ijtimoiy izolyatsiyaga moyilligini oshiradi, stressga chidamlilikni pasaytiradi va moslashuv jarayonini murakkablashtiradi. Qo'llab-quvvatlashning epizodik xarakterga ega bo'lishi shaxsda barqarorlik hissining shakllanmasligiga olib keladi. Respondentlarning 107 nafari (14,6%) "amalda mavjud emas" deb javob bergan. Mazkur guruh eng yuqori risk toifasiga kiradi, chunki ularda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning deyarli yo'qligi psixologik dezadaptatsiya, emotsional izolyatsiya va ijtimoiy chetlanish holatlarini yuzaga keltirishi mumkin. Bunday shaxslar reintegratsiya jarayonida eng ko'p yordam va tashkiliy-psixologik aralashuvga muhtoj hisoblanadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, respondentlarning atigi 23,1 foizi yuqori darajadagi barqaror ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ega bo'lsa, aksariyat qismida ushbu resurslar cheklangan, zaif yoki umuman mavjud emas (3-rasm).



3-rasm: Fuqaroviy hayotdagi faoliyatingizning asosiy motivatsiyasi? nomli savolga berilgan javoblar

"Fuqaroviy hayotdagi faoliyatingizning asosiy motivatsiyasi?" nomli savolga berilgan javoblar tahlili rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning fuqarolik muhitidagi faoliyatga undovchi ichki va tashqi determinantlari, shuningdek, ularning motivatsion tuzilmasi xususiyatlarini aniqlash imkonini beruvchi muhim ijtimoiy-psixologik indikator hisoblanadi. Motivatsiya darajasi va yo'nalganligi reintegratsiya jarayonining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Respondentlarning 170 nafari (23,1%) "ichki motivatsiya va o'zini rivojlantirishga intilish"ni asosiy omil sifatida ko'rsatgan. Ushbu natija mazkur guruh vakillarida avtonom motivatsiya ustunligini anglatadi. Bu holat shaxsda o'zini anglash, o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirilganlik, ichki ehtiyojlar asosida faoliyat yuritish hamda yuqori darajadagi shaxsiy mas'uliyat mavjudligini ko'rsatadi. Bunday shaxslar reintegratsiya jarayonida barqaror va uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishish salohiyatiga ega.


Respondentlarning 151 nafari (20,5%) "ijtimoiy ehtiyojlar va tashqi rag'batlar"ni asosiy motivatsion omil sifatida qayd etgan. Ushbu guruhda faoliyat ko'proq tashqi omillar, ijtimoiy maqom, moddiy rag'bat, jamiyatdagi o'rinni egallash kabi ehtiyojlar bilan belgilanadi. Bu esa motivatsiyaning ekstrinsik xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Bunday shaxslar tashqi sharoitlar qulay bo'lganida yuqori faollikni namoyon etadi, ammo bu omillar zaiflashganda motivatsiya darajasi pasayishi mumkin.

Yana 151 nafar respondent (20,5%) "majburiyat asosidagi faoliyat"ni tanlagan. Ushbu guruh vakillarida faoliyat ko'proq zaruriyat, ijtimoiy yoki oilaviy majburiyatlar bilan bog'liq bo'lib, ichki qiziqish va tashabbus darajasi nisbatan past bo'lishi mumkin. Bu holat shaxsda tashqi nazoratning ustunligi va ichki motivatsiyaning yetarli darajada shakllanmaganligi bilan izohlanadi.

Respondentlarning eng katta qismi 263 nafari (35,8%) "motivatsiya yetishmasligi"ni qayd etgan. Ushbu natija tanlanmaning sezilarli qismida motivatsion inqiroz mavjudligini ko'rsatadi. Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan, bu holat reintegratsiya jarayonidagi eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Motivatsiyaning



yetishmasligi ko'pincha psixologik charchoq, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning pastligi, kasbiy o'zini topa olmaslik yoki hayotiy maqsadlarning noaniqligi bilan bog'liq bo'ladi. Respondentlarning atigi 23,1 foizida ichki motivatsiya ustun bo'lsa, aksariyat qismida motivatsiya tashqi omillarga bog'liq, majburiy yoki umuman yetarli emas (4-rasm).



4-rasm: Harbiy xizmatdan keyin ehtiyojlaringiz? nomli savolga berilgan javoblar

“Harbiy xizmatdan keyin ehtiyojlaringiz qanday o'zgardi?” nomli savolga berilgan javoblar tahlili rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning ehtiyojlar tizimi transformatsiyasi, ya'ni shaxsning hayotiy yo'nalganligi, motivatsion tuzilmasi va ijtimoiy moslashuv mexanizmlaridagi o'zgarishlarni aniqlash imkonini beruvchi muhim ijtimoiy-psixologik indikator hisoblanadi. Ehtiyojlar dinamikasi reintegratsiya jarayonining chuqurligi va samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.


Respondentlarning 326 nafari (44,4%) “yangi sharoitga moslashib, qayta shakllangan” deb javob bergan. Ushbu natija shuni ko'rsatadiki, tanlanmaning qariyb yarmi o'z ehtiyojlar tizimini fuqaroviy hayot talablari asosida muvaffaqiyatli qayta strukturallashtira olgan. Bu holat shaxsda yuqori darajadagi moslashuvchanlik, refleksivlik va yangi ijtimoiy sharoitlarga adekvat javob berish qobiliyatining rivojlanganligini anglatadi. Bunday shaxslar reintegratsiya jarayonida faol va barqaror pozitsiyani egallaydi.

Respondentlarning 151 nafari (20,5%) “qisman o'zgargan” deb baholagan. Ushbu guruhda ehtiyojlar tizimi transformatsiyasi qisman amalga oshgan bo'lib, eski va yangi ehtiyojlar o'rtasida muayyan muvozanat saqlanib qolgan. Bu holat o'tish davriga xos bo'lgan adaptiv jarayonning davom etayotganligini ko'rsatadi. Mazkur guruhda ehtiyojlarni to'liq qayta shakllantirish uchun qo'shimcha ijtimoiy va psixologik resurslar zarur bo'lishi mumkin.

Yana 151 nafar respondent (20,5%) “o'zgarish jarayonida” deb javob bergan. Bu natija shaxslarning ehtiyojlar tizimi hali dinamik rivojlanish bosqichida ekanligini bildiradi. Ushbu guruhda reintegratsiya jarayoni faol davom etib, ehtiyojlar, qadriyatlar va hayotiy maqsadlar asta-sekin transformatsiyalanmoqda. Ijtimoiy-psixologik jihatdan bu holat noaniqlik, izlanish va yangi imkoniyatlarni qidirish bilan tavsiflanadi.

Respondentlarning 107 nafari (14,6%) “avvalgi holatda qolgan” deb javob bergan. Mazkur guruhda ehtiyojlar tizimi deyarli o'zgarmagan bo'lib, harbiy davrda shakllangan motivatsion va qadriyatlar strukturasi saqlanib qolganligini ko'rsatadi. Bu esa reintegratsiya jarayonida moslashuvning past darajada ekanligini va psixologik rigidlik elementlarining mavjudligini anglatadi. Bunday shaxslar yangi ijtimoiy muhit talablariga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishi ehtimoli yuqori.

Respondentlarning asosiy qismi (44,4%) ehtiyojlar tizimini muvaffaqiyatli qayta shakllantirgan bo'lsa-da, qariyb yarmida ushbu jarayon to'liq yakunlanmagan yoki yetarli darajada amalga oshmagan. Bu esa reintegratsiya jarayonida ehtiyojlar transformatsiyasi murakkab, bosqichma-bosqich kechadigan ijtimoiy-psixologik jarayon ekanligini asoslaydi (5-rasm).



5-rasm: Yangi kasbiy faoliyatga moslashuv? nomli savolga berilgan javoblar



“Yangi kasbiy faoliyatga moslashuv?” nomli savolga berilgan javoblar tahlili rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning kasbiy reintegratsiya darajasi, mehnat bozoriga integratsiyalashuv xususiyatlari hamda kasbiy identifikatsiya transformatsiyasining ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini aniqlash imkonini beruvchi muhim empirik indikator hisoblanadi. Kasbiy moslashuv darajasi shaxsning umumiy reintegratsiya muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy komponentlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.


Respondentlarning 170 nafari (23,1%) “tez va samarali moslashganman” deb javob bergan. Ushbu natija mazkur guruh vakillarida yuqori darajadagi kasbiy moslashuvchanlik, yangi faoliyat sharoitlarini tez o'zlashtirish qobiliyati hamda mavjud kompetensiyalarni yangi kontekstda samarali qo'llay olish salohiyati mavjudligini ko'rsatadi. Shaxslar yuqori darajadagi kasbiy reziliientlik va adaptiv strategiyalar bilan ajralib turadi.

Respondentlarning eng katta qismi 307 nafari (41,8%) “qisman moslashganman” deb baholagan. Ushbu guruhda kasbiy moslashuv jarayoni amalga oshayotgan bo'lsa-da, u hali to'liq yakunlanmagan. Bu holat yangi kasbiy talablar, ish muhitining o'ziga xosligi yoki kompetensiyalarni qayta moslashtirish zarurati bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, mazkur guruhda moslashuv jarayonini qo'llab-quvvatlash orqali to'liq integratsiyaga erishish imkoniyati yuqori.

Respondentlarning 151 nafari (20,5%) “qiyinchiliklar mavjud” deb javob bergan. Ushbu guruh vakillarida kasbiy moslashuv jarayoni murakkab kechib, turli psixologik va ijtimoiy to'siqlar bilan tavsiflanadi. Bunday qiyinchiliklar kasbiy malakaning yetarli darajada mos kelmasligi, yangi mehnat muhitiga moslashishdagi qiyinchiliklar yoki motivatsion pasayish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ijtimoiy-psixologik jihatdan bu holat kasbiy deadaptatsiya xavfini oshiradi.

Respondentlarning 107 nafari (14,6%) “moslashmaganman” deb javob bergan. Mazkur guruh eng muammoli toifa sifatida tavsiflanib, ularda kasbiy reintegratsiya deyarli amalga oshmagan. Bu holat shaxsning mehnat bozoriga kirishda qiyinchiliklarga duch kelayotganligini, kasbiy identifikatsiyaning shakllanmaganligini yoki psixologik to'siqlar mavjudligini ko'rsatadi. Bunday shaxslar kompleks qo'llab-quvvatlash choralariga muhtoj hisoblanadi.

Sinaluvchilarning asosiy qismi (23,1% + 41,8% = 64,9%) yangi kasbiy faoliyatga ma'lum darajada moslashgan bo'lsa-da, qariyb uchdan bir qismida kasbiy moslashuv muammolari saqlanib qolmoqda. Bu esa kasbiy reintegratsiya jarayoni murakkab va ko'p omilli ekanligini, u individual-psixologik xususiyatlar, ijtimoiy resurslar hamda mehnat bozorining talablari bilan uzviy bog'liqligini asoslaydi (6-rasm).



6-rasm: Oilaviy va ijtimoiy rollarni bajarish darajangiz? nomli savolga berilgan javoblar

“Oilaviy va ijtimoiy rollarni bajarish darajangiz?” nomli savolga berilgan javoblar tahlili rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy rol funksionalligi, shaxslararo munosabatlar tizimidagi faolligi hamda reintegratsiya jarayonining amaliy natijadorligini baholash imkonini beruvchi muhim ijtimoiy-psixologik indikator hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkich shaxsning oilaviy va ijtimoiy majburiyatlarni bajarish qobiliyati, rol integratsiyasi darajasi hamda ijtimoiy moslashuv samaradorligini aks ettiradi.

Respondentlarning 170 nafari (23,1%) “to'liq va samarali” deb javob bergan. Ushbu natija mazkur guruh vakillarida ijtimoiy va oilaviy rollarning muvaffaqiyatli integratsiyalashganligini, shaxsning ijtimoiy funksionalligi yuqori darajada ekanligini ko'rsatadi. Bu holat barqaror ijtimoiy identifikatsiya, yuqori darajadagi mas'uliyatlilik, kommunikativ kompetensiya hamda moslashuvchanlik bilan tavsiflanadi. Bunday shaxslar reintegratsiya jarayonining muvaffaqiyatli subyektlari sifatida namoyon bo'ladi.

Respondentlarning 151 nafari (20,5%) “asosan bajaraman” deb baholagan. Ushbu guruhda ijtimoiy va oilaviy rollar umumiy jihatdan bajarilayotgan bo'lsa-da, ayrim vaziyatlarda muayyan qiyinchiliklar yoki nomuvofiqliklar kuzatilishi mumkin. Bu holat rol yuklamasining yuqoriligi yoki vaqt va resurslar taqsimotidagi muammolar bilan izohlanadi. Shu bilan birga, mazkur guruhda rol bajarish samaradorligini oshirish imkoniyati mavjud.



Respondentlarning eng katta qismi 307 nafari (41,8%) “qisman bajaraman” deb javob bergan. Ushbu natija tanlanmaning katta qismida rol bajarish jarayoni to'liq shakllanmaganligini ko'rsatadi. Rol konfliktlari, ya'ni oilaviy va ijtimoiy talablar o'rtasidagi nomuvofiqlik, shuningdek, moslashuv jarayonining yetarli darajada yakunlanmaganligi bilan izohlanadi. Bunday shaxslar uchun rol integratsiyasini qo'llab-quvvatlovchi psixologik va ijtimoiy mexanizmlar zarur.

Respondentlarning 107 nafari (14,6%) “bajara olmayman” deb javob bergan. Mazkur guruh eng muammoli toifa sifatida tavsiflanib, ularda ijtimoiy va oilaviy rollarni bajarishda jiddiy qiyinchiliklar mavjud. Bu holat ijtimoiy dezadaptatsiya, psixologik zo'riqish, motivatsion pasayish yoki ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ushbu guruh vakillari kompleks psixologik va ijtimoiy yordamga muhtoj hisoblanadi.

Respondentlarning faqat 23,1 foizi ijtimoiy va oilaviy rollarni to'liq va samarali bajarayotgan bo'lsa, aksariyat qismida ushbu jarayon turli darajadagi qiyinchiliklar bilan kechmoqda. Bu esa reintegratsiya jarayonida rol integratsiyasi muhim va murakkab ijtimoiy-psixologik muammo ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Mazkur empirik natijalar asosida reintegratsiya dasturlarida oilaviy va ijtimoiy rollarni uyg'unlashtirishga qaratilgan kompleks yondashuvni joriy etish zarurligi aniqlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan empirik tadqiqot va tizimli tahlillar shuni ko'rsatadiki, rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning fuqarolik jamiyatiga reintegratsiyalashuvi muvaffaqiyati ularning motivatsion-ehtiyoj sohasi, yangi kasbiy-rolli moslashuvi va tashqi ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi o'rtasidagi dinamik mutanosiblikka bevosita bog'liqdir.

Xizmatdan keyingi dastlabki davrda sobiq harbiy xizmatchilar duch keladigan kommunikativ to'siqlar va oilaviy-ijtimoiy rollarni bajarishdagi muammolar ularning shaxsiy inqirozi emas, balki institutsional muhit almashinishi oqibatidagi qonuniyati psixologik transformatsiya bo'lib, ularni barvaqt aniqlash va oldini olish jamiyat xavfsizligi hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, sohada ijobiy reintegratsiya tajribasini ta'minlash maqsadida zaxiradagi shaxslarning psixosotsial faoliyatini doimiy monitoring qiluvchi va ularning kasbiy identikligini tizimli qayta shakllantiruvchi maqsadli ijtimoiy-psixologik ko'mak modellarini amaliyotga tatbiq etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Elnitsky CA, Fisher MP and Blevins CL (2017) Military Service Member and Veteran Reintegration: A Conceptual Analysis, Unified Definition, and Key Domains. *Front. Psychol.* 8:369. doi: 10.3389/fpsyg.2017.00369.
2. Dr Madeline Romaniuk // The Psychological Adjustment Experience of Reintegration Following Discharge from Military Service: A Systematic Review May 2018 *Journal of Military and Veterans' Health* 26(2) https://www.researchgate.net/publication/326463117_The_Psychological_Adjustment_Experience_of_Reintegration_Following_Discharge_from_Military_Service_A_Systematic_Review
3. Sayer NA, Frazier P, Orazem RJ, Murdoch M, Gravely A, Carlson KF, Hintz S, Noorbaloochi S. Military to civilian questionnaire: a measure of postdeployment community reintegration difficulty among veterans using Department of Veterans Affairs medical care. *J Trauma Stress.* 2011 Dec;24(6):660-70. doi: 10.1002/jts.20706. Epub 2011 Dec 7. PMID: 22162082.
4. Nicholas Rattray, Mindy Flanagan, Michelle Salers, Diana Natividad, Ai-Nghia Do, Richard Frankel, Katrina Spontak, Marina Kukla // The Association Between Reintegration, Perceptions of Health and Flourishing During Transition from Military to Civilian Life Among Veterans with Invisible Injuries. <https://journal-veterans-studies.org/articles/10.21061/jvs.v9i1.432#references>
5. Ikmatullayev G'.Z. Adaptatsiya jarayonining pedagogik-psixologik xususiyatlari // Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila. - Toshkent, 2023. - №3(8). - B. 102-106.
6. Ikmatullayev G'.Z. Harbiy xizmatga chaqiriluvchilarning harbiy xizmatga moslashishidagi qiyinchiliklar bo'yicha nazariy yondashuvlar // Jamoat xavfsizligi ilmiy-amaliy jurnali. - Toshkent, 2024. - №3. - B. 143-147.
7. Ikmatullayev G'.Z. Ijtimoiy muhit harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatiga psixologik moslashuvchanligida dinamik omil sifatida // Jamoat xavfsizligi ilmiy-amaliy jurnali. - Toshkent, 2025. - №1. - B. 86-90.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.